



Abu Nasr
Forobiy

Fozil odamlar shahri



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO‘K: 001.6

KBK: 87.3

F – 84

Forobiy, Abu Nasr

Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320-b.

ISBN 978-9943-27-613-0

Sharq Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy asarlarida oqilona davlat tuzimi, insoniyat jamiyati haqidagi nodir va dono fikrlarga duch kelamiz. IX–X asrlarda yashab, ijod etgan «Arastu falsafasi», «Fozil odamlar shahri», «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» asarlaridan namunalar kiritilgan. Kitob faylasuflarga, tarixchilarga, adiblarga va shu soha bilan qiziquvchi o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 001.6

KBK: 87.3

Tarjimonlar:

Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov,
Urfon Otajon

Mas’ul muharrirlar:

Muzaffar Xayrullayev,
Muhammadjon Jakbarov

Taqrizchilar:

falsafa fanlari nomzodlari
Anvar Sharipov, Jaloliddin Yusupov

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-27-613-0

© Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-yil.

© Abu Nasr Forobiy, «Fozil odamlar shahri». «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

SHARQNING MASHHUR MUTAFAKKIRI

Ilk oʻrta asr Yaqin va Oʻrta Sharqda al-Kindiy, ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Roʻshd kabi bir qancha buyuk mutaffakirlarni etishtirib chiqardi. Ilk oʻrta asr buyuk mutafakkirlaridan biri oʻz davrining yorqin yulduzi Abu Nasr Forobiy edi. Oʻrta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, «hayot-baxsh hurfikrlik» shakllanishi, umuman, Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlarida ilgʻor ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bogʻliq. Aql va ilm tantanasi, maʼnaviy ozodlik, inson takomili, adolatli jamiyat uchun kurashgan bu mashhur olim, faylasufning tavallud topganiga 1140-yildan oshdi.

Abu Nasr Forobiy hijriy 260 (milodiy 873) yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan yer Shosh – hozirgi Toshkentdan 200–260 km shimoli-gʻarbda joylashgan Forob (Oʻror) degan joyda tugʻildi. U Forobda oʻqidi, Shoshda boʻldi, Buxoro va Samarqandda taʼlim oldi. Arab xalifaligining markazi – Bagʻdodda oʻqishini davom ettirdi, umrining soʻnggi yillarida Halabda, keyinroq Damashqda yashadi va shu yerda toʻqqiz yuz elliginchi yilda vafot etdi.

Forobiy oʻrta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarini oʻz ichiga olgan 160 dan ortiq risola yaratdi. Lekin uning ilmiy izlanishlari avvalo ilmning nazariy jihatlariga va falsafiy masalalariga taalluqli edi.

Forobiy o'zining ko'p qirrali ijodi bilan inson bilimlari rivojiga ulkan hissa qo'shdi, jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Uning asarlari hozirga qadar jahonning ko'pgina mamlakatlarida o'rganilmoqda va tarjima etilmoqda. Forobiy haqida turli tillarda ko'plab asarlar yaratilgan, uning risolalari ko'p tillarda e'lon qilingan.

Forobiyning boy merosi keng o'rganilmoqda. Mamlakatimizda uning ayrim asarlari rus, o'zbek, qozoq tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. Uning ijodi haqida Moskva, O'zbekiston, Qozog'iston olimlarining monografiyalari, risolalari, maqolalari nashr etilgan. Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston va boshqa respublikalarda ham muayyan ishlar olib borilmoqda.

Forobiy iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayot katta voqealarga boy bo'lgan ilk o'rta asr davrida yashadi. Bu davrda Yaqin Sharqda feodal munosabatlar rivojlandi, ishlab chiqarish kuchlari o'sdi, hunarmandchilik, shahar hayoti yuksaldi, irrigasiya sistemalari, yirik me'moriy inshootlar barpo etildi, yangi shaharlar vujudga keldi, jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida ularning roli oshdi, xalifalikning turli hududlari o'rtasida, shuningdek, Hindiston, Vizantiya, Xitoy, Afrika, O'rta Yer dengizi qirg'og'i shaharlari bilan tashqi savdo aloqalari kuchaydi.

Forobiy asarlarida, uning ijtimoiy-falsafiy g'oyalari da o'sha davrning tub ziddiyatlari, uning yutuqlari va kamchiliklari cheklanganligi, ijobiy va salbiy tomonlari aks etgan. O'z davrining buyuk mutafakkiri, qomusiy olim, faylasuf va gumanisti bo'lgan Abu Nasr Forobiy ilg'or falsafiy maktabning shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi va uning muhim masalalari hamda asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Forobiyning o'rta asr ilg'or fikri taraqqiyotidagi o'rni va rolini ta'riflaganda, avvalo, uning qadimgi yunon

olimlari asarlarini tarjima qilganligini va ularga yozgan sharhlarining ahamiyatini ko'rsatib o'tish lozim. Forobiy ellin donishmandligining chuqur bilimdoni edi. U Platon, Aristotel, Epikur, Zepon, Aleksandr Afrodiziy, Evklid, Ptolomey, Porfiriy asarlariga sharhlar yozgan, turli-tuman qadimgi falsafiy maktablar – epikurchilar, stoiklar, pifagorchilar, kiniklar maktablarini yaxshi bilgan (Forobiyning «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish lozim» degan risolasiga qarang). U qadimgi Yunoniston, avvalo, Aristotel naturofilosofik g'oyalarining izchil davomchisi va targ'ibotchisi bo'lib, Aristotelning barcha mashhur asarlariga sharhlar yozdi.

Forobiyning bu faoliyati faqat ma'rifatchilik maqsadlarini ko'zlab qolmasdan, balki hukmron musulmon teologiyasining aqidalaridan farqli bo'lgan tabiiy-ilmiy va sof falsafiy bilimlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Sharqda bu davrda Aristotel jamiyatining ilg'or kishilari o'rtasida beqiyos obro'ga ega edi. U ma'rifat uchun kurashuvchi, g'oyaviy ustoz hisoblanardi. Aristotelning ilmiy qarashlarini, yunon donishmandligini chuqur bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi uchun Forobiy «al-Muallim as-soniy» – «Ikkinchi muallim», «Sharq Aristoteli» degan unvon oldi.

Forobiy o'zi shug'ullangan ilmning har bir sohasida aql tamoyillariga va narsalarning ob'yektiv munosabatlariga muvofiq keluvchi haqiqiy ahvolni aniqlashga intildi. Shu ma'noda uning «Inson tanasining a'zolari haqidagi» risolasi katta ahamiyatga ega. Bu asar tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashda mashhur «Tib qonunlari»ning muallifi Abu Ali ibn Sinoning bevosita o'tmishdoshi bo'lganligini tasdiqlaydi. Forobiy bu yerda organizm bilan muhitning o'zaro aloqasiga, insonning ruhiy va jis-

moniy holatining tashqi omillari, atrof-muhit ta'siriga bog'liqligiga alohida e'tibor berdi.

«Astrologiyaning to'g'ri va noto'g'ri qoidalari haqida» nomli risolasida olim astrologlarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar hamda jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlarga asoslangan faoliyatlarini yolg'on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Mutakallimlarning tabiatda mutlaq bo'shliqning mavjudligi haqidagi asosiy tezislaridan biriga qarshi chiqib, Forobiy «Bo'shliq haqidagi risola»sida suv to'ldirilgan idish bilan o'tkazilgan oddiy tajribasida mutlaq bo'shliqning bo'lishi mumkin emasligini va tabiatda ko'z bilan ko'riladigan fazoni tashkil etuvchi ko'zga ko'rinmaydigan zarrachalar mavjud degan fikrni aytdi. Evklid, Ptolomey kitoblariga yozgan sharhlarida, o'zining geometriyaga oid kitobida Forobiy qadimgi dunyo va o'rta asr matematik g'oyalarning yirik bilimdoni sifatida maydonga chiqdi va matematikaning bir qancha murakkab masalalari, kategoriyalari va mavhum tushunchalarini materialistik hal etish yo'lini qidirdi.

Forobiy ko'p jildli «Musiqqa haqida katta kitob» bilan O'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida maydonga chiqdi. U substansiyaning xususiyati bo'lgan tovushlar paydo bo'lishining faqat tabiiy-ilmiy ta'rifini berib qolmasdan, balki musiqaviy kuylar garmoniyasi vujudga kelishining matematik tamoyillarini ochib beradi. Bu asarda faqat musiqa nazariyasi emas, balki tarixi ham bayon etilgan, O'rta asr Yaqin va O'rta Sharqida ma'lum bo'lgan musiqa asboblari hamda ularda ijro etish qoidalari tafsiloti ham berilgan. Forobiyning o'zi rivoyatlarga ko'ra, taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobining ixtirochisi bo'lgan. Uning bu asari Yaqin va O'rta Sharqda musiqa ilmining

kelgusi taraqqiyotida asos va qimmatli manba bo'lib qoldi.

Forobiy yirik mantiq olimi sifatida ham keng shuhrat qozongan. U mantiqning turli muammolari-ga oid bir qancha risolalar yozgan bo'lib, ularda qa-dimgi Yunonistonning eng yaxshi an'analarini davom ettirdi. U mantiqning to'g'ri fikrlashning shakllari va qoidalari haqidagi ilm, to'g'ri bilimga erishiladigan omil deb bildi.

O'rta asr fanining taraqqiyotida Forobiyning ilmlar tasnifi muhim rol o'ynadi. «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Ilmlarning tasnifi haqida» risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, ta'rifi va tafsilotini berdi. Ilmlarning tuzilishi va tizimini baholashda Forobiy ilmda borliqning birdan-bir holati aks etishdan iborat degan mezonni ilgari surdi. Forobiy fikricha, har bir fan substan-siyaning muayyan tomonini, moddiy jismlarning muayyan guruhi yoki xususiyatini o'rganadi. Olim tabiat va inson organizmiga xos bo'lgan tabiiy jara-yonlarni o'rganuvchi ilmlarni birinchi o'ringa qo'ydi.

Umuman, Forobiy ilmlarning quyidagi struktu-rasini keltiradi:

1. Til haqidagi ilm. U yetti bo'limdan iborat bo'lib, grammatika, poetika, to'g'ri yozuv va boshqalarni o'z ichiga oladi.

2. Mantiq. Sakkiz bo'limdan, jumladan, tushun-cha, muhokama, xulosa hamda muhokama metodiga taalluqli sillogistika, dialektika, sofistika va boshqa-lardan iborat besh bo'limni o'z ichiga oladi.

3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geo-metriya, optika, sayyorlar, musiqa, og'irlik, mexanika haqidagi ilmlardan iborat.

4. Ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy – tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.

5. Siyosat ilmi (ilm al-madaniy – shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudensiya (fikh) va musulmon teologiyasi (kalom). Mutakallimlar kalomni bilishning, filosofiyaning universal metodi, islomning nazariy asosi deb hisoblaganlari holda Forobiy boshqa ilmlar orasida unga juda kam o‘rin bergan. Bu bilan Forobiy ortodoksal islom tarafdorlari talqinidagi kalomning hamma narsani o‘z ichiga olish xarakterini inkor etadi.

«Ilmlar tasnifi haqida» risolasining kirish qismida Forobiy o‘zining ilmlarning tasnifi bo‘yicha ishidan maqsadi haqiqatni o‘rganish va tasdiqlashdan, uni yolg‘ondan va haqiqat sifatlikdan farqlashdan iborat deydi. Shu munosabat bilan u bilishning qiyinchiliklarini bayon etadi, olimning yuksak mas‘uliyatini ta’kidlaydi hamda ilmiy bilish masalalariga dogmatik munosabatda bo‘luvchi, shuningdek, aslida ilmning mohiyatini tushunmasdan turib, hamma narsani bilganini da’vo qiladigan kishilarni tanqid qiladi.

Forobiy fikricha, fanlar va umuman, bilim borliqdan kelib chiqib, insonning ularga bo‘lgan ehtiyojining o‘sib borishi va borliqni uzoq vaqt o‘rganishi jarayonida muttasil va izchil to‘planib boradi. Forobiy qarashlariga ko‘ra, turli ilmlar bir-birini inkor va istisno etmaydi, balki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va dunyoni bilishga hamda baxt-saodatga erishishga xizmat qiluvchi yagona halqani tashkil etadi.

Forobiyning o‘rta asr ma’naviy madaniyatining turli sohalaridagi dadil izlanishlari va muvaffaqiyatlari uning o‘z dunyoqarashi va falsafiy fikrlash tamoyillaridan kelib chiqqanligi bilan izohlanadi. Qadimgi dunyoning falsafiy an‘analari hamda dunyoviy ilm va madaniyatning kuchli taraqqiyoti, avvalo, o‘sha davrdagi tabiiy-ilmiy fikr yutuqlari zaminida

shakllangan bu tamoyillar Forobiyga borliqning tuzilishi, tabiatning mohiyati, aql va ilmning roli, ijtimoiy hayotning xarakteri haqida yangi g'oyalarni ilgari surishga imkon berdi. Bu g'oyalar O'rta asr Yaqin va O'rta Sharqning ma'naviy hayotida yangi, ilg'or ijtimoiy-falsafiy yo'nalishning shakllanishiga olib keldi.

Muzaffar XAYRULLAYEV,
falsafa fanlari doktori

MUALLIM AS-SONIY

Abu Nasr Forobiy Oʻrta Osiyodan chiqqan buyuk fan arboblari sanaladi. Oʻrta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qoʻshgan bu olim bilim-maʼrifatning koʻp sohalari egallagan va oʻzidan keyin salmoqli meros qoldirgan. Forobiy riyoziyot va falakiyot, tabobat va musiqa, mantiq va falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida qalam tebratgan, bu sohalarning har birida ajoyib asarlar yaratgan.

Forobiy falsafa tarixida yirik mantiqshunos, faylasuf sifatida mashhurdir, uning tarjimai holi haqida tibbiyot tarixiga oid kitob yozgan arab olimi Ibn Abi Usaybia (1203–1270) Forobiy haqida bunday yozadi:

«Abu Nasr Forobiy bir qancha vaqt Bagʻdodda yashadi, keyin Shom (Suriya)ga koʻchib kelib, umrining oxiriga qadar shu yerda turib qoldi. Rahmatli yetuk faylasuflardan, fozil donishmandlardan edi, hikmat – falsafaga oid fanlarni mukammal bilardi. Riyoziyot-matematika, falakiyot astronomik ilmlariga mohir, pokiza, yirik alloma kishi edi. Mol-dunyo bilan hech ishi yoʻq edi, «oʻlmas ovqat»ga chidab yashaydigan serqanoat odam edi. Uning feʼl-atvori xuddi qadimgi faylasuf-hakimlar odobiga oʻxshardi.

Abu Nasr Forobiy tib ilmidan ham durustgina xabardor edi. Bu ilmga oid nazariyani yaxshi bilardi. Ammo amaliy tajriba qismini uncha chuqur bilmasdi».

Ibn Abi Usaybianing otasi koʻz tabibi boʻlgan ekan, oʻgʻli ham bu kasbni egallab, keyin asar yozishga ragʻbat qilgan, natijada toʻrt yuz tabibning tarjimai holini toʻplab asar yozganida ular ichida Shom (Su-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/2002> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2002> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2002>